

KUNXO‘JA SHE’RLARIDA MAISHIY BUYUMLARGA OID SO‘ZLAR

Kadirniazova Biybijamal
Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq mumtoz shoiri Kunxo‘ja asarlaridagi maishiy buyumlarga oid so‘zlar o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: *lingvistika, leksik birlik, maishiy leksika, uy-ro‘zg‘or buyumlari.*

Annotaciya. Maqalada qaraqalpaq klassik shayiri Kúnxoja shıǵarmalarında turmisliq buyimlarǵa baylanıshlı sózler úyrenilgen.

Tayanish sózler: *lingvistika, leksikalıq birlik, turmisliq leksika, úy-xojalıq buyimlari.*

Qoraqalpoq adabiy tilining shakllanish va rivojlanish tarixida o‘chmas iz qoldirgan Kunxo‘ja she’rlarini lingvistik jihatdan o‘rganish va uning qoraqalpoq yozma adabiy tilining shakllanishida tutgan alohida o‘rnini aniqlash hozirgi qoraqalpoq tilshunosligining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Har qanday tilning hozirgi holatiga tavsif berish uchun uning tarixiga, undagi tarixiy o‘zgarishlarga e’tibor berish kerak. Biz shundagina tilning hozirgi rivojlanish darjası haqida batafsil ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Shu ma’noda ushbu maqolamizda Kunxo‘ja she’rlaridagi maishiy buyumlarga oid ba’zi so‘zlarning lingvistik jihatlarini o‘rganamiz.

Qoraqalpoq xalqi o‘zining kundalik hayotida har xil maishiy buyumlardan foydalangan. Shoир she’rlarida tarixiy davrlar davomida kundalik hayotda, ro‘zg‘orda foydalaniлgan turli xil uy-ro‘zg‘or buyumlari atamalari ko‘p uchraydi. Masalan:

Iyninde jumırı salingán torǵa

Meslerin arqalap qozǵalıp zorgá (12),

Hayt bolsa qız ushin arbańdı jegip (58).

Arba (arava) atamasi odamlar minishi yoki yuk tashish uchun yog‘ochdan maxsus yasalgan ulov hisoblanadi. Shoир *arba* (arava) so‘zi orqali qoraqalpoq xalqi turmushining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib bergen. Shoир xalqning maishiy o‘ziga xosliklarini aks ettirishda bunday leksik birliklardan unumli foydalangan. Masalan:

Gúze alip ayran sorap hayaliń (21).

Qayıqqa mindik darǵada,


Kóp oylandıq ol jaǵada (23).

Gúze (ko‘za). Sifatli loydan maxsus o‘choqda yuqori issiq haroratda tayyorlaniladigan, sut, ayron va boshqa suyuqliklarni solib qo‘yish uchun foydalaniлgan idish [1].

Qayıq (qayıq) – suv ustida eshkak yordamida suzib yuradigan kemaning kichik turi [2].

Shoир ijodida qoraqalpoq xalqining kundalik turmushiga aloqador xo‘jalik buyumlari nomlaridan *arsha* (sandiq), *shanishqi* (sanchqi), *balta* (bolta), *pishaq* (pichoq), *qaraz*, *digirman* (tegirmon), *ketpen* (ketmon) va boshqa atamalar uchraydi:

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS



Altın menen toltsa da *arshalar* (29).

Ataqlı usta *balta* urǵan,

Janısa *pishaq* ótedi,

Qaraz, *digirman* soqpaǵa,

Qayım dárpentse, qara tas (50).

Qaraz so‘zi tuya, ot, eshak va boshqa hayvonlarni qo‘shga qo‘shib, un tortadigan katta tegirmonga nisbatan qo‘llaniladi [3]. *Digirman* so‘zi bug‘doy, jo‘xori donini yanchib, un qilish uchun foydalilanidigan, tepasi aylanib turadigan, bir-birining ustida turuvchi ikkita aylana tosh ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan:

Shilbir emes, *buydań* awır (26).

Altınnan qılǵan *dorba* bar (145),

Bergenegiń berkinbegen,

Degershigiń dirkildegen,

Ógiz jekse, zorǵa júrgen,

Arısıń da jaman arba (2,50).

Qoraqalpoq xalqi qadim davrlardan chorvachilik, dehqonchilik bilan kun kechirgan. Shuning uchun ham shoir she’rlarida o‘sha davrlardagi qoraqalpoq xalqining yashash sharoitlari bilan bog‘liq *shilbir* (chilvir), *buyda*, *degershik* (g‘ildirak), *bergenek* (devor), *aris* (arava) kabi mehnat qurollari qo‘llanilgan. Masalan:

Shilbir emes, *buydań* awır (26).

Altınnan qılǵan *dorba* bar (145),

Bergenegiń berkinbegen,

Degershigiń dirkildegen,

Ógiz jekse, zorǵa júrgen,

Arısıń da jaman arba (2,50).

Shilbir so‘zi ulovning boshiga taqiladigan arqon. *Buyda* – tuyaning burnini teshib o‘tkazilgan yoki burun atrofidan bog‘langan ip. Shoir she’rlaridagi *bergenek*, *degershik*, *aris* so‘zleri qoraqalpoq xalqining kundalik turmushida foydalilanidigan asosiy ulov bo‘lgan aravaning qismlari ma’nosida qo‘llaniladi. *Tabaq* so‘zi shoir she’rlarida o‘z ma’nosida, ya’ni ovqat quyiladigan idish – lagan ma’nosida qo‘llanilgan. Masalan:

Qolına alıp *tabaqti*,

Tókti bergen bılamıqtı (128).

Shoir she’rlarida bundan tashqari *qobız* (qo‘biz), *duwtar* (dutor) kabi so‘zlar qo‘llanilgan. Masalan:

Sherttim *duwtar*, ayttim qosıq (25),

Jır tógesenéń bárha *qobız* (49).

Baxshi-jirovchilik va musiqa asbobi bo ‘lgan *qobız* (qo‘biz) – qoraqalpoqlar orasida qadim zamonlardanoq mashhur. Qozoq olimi E.Nurmag‘ambet o‘g‘li “Qobız” degan maqolasida [5] uning kelib chiqishi haqida so‘z yuritib, bu asbobning tub assosi turkiy yozma yodgorliklarda “qobi”, ba’zi o‘rinlarda “qubi” shaklidagi so‘zlar hozirgi tilimizdagи “bo‘sh”, “bo‘shliq” ma’nolarini ifodalagan [6]. Mana shunday asoslarni e’tiborga olgan holda, har xil affikslar yordami bilan o‘sha davrning o‘zidayoq ichi bo‘sh

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

idishlarga “quba” (“chelak”, “tubi” ma’nosida) kabi atamalar berilgan. Qo‘biz so‘zi bundan deyarli ming yillar ilgari, ya’ni XI asrda M.Koshg‘ariy davrida “qobuz” shaklida qo‘llanilgan. Agar diqqat bilan qarasak, “qobiz” atamasining kelib chiqishi, asosan, uning ichi bo‘sh bo‘lishi hamda bir-biriga mos bo‘lganligiga bog‘liqdir.

Qoraqalpoq tilida bu atamalarning ko‘pchiligi hozirgi kunda qadar keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ayrimlari esa kundalik turmushda foydalanishdan chiqib qolgan hamda eskirgan so‘zlar qatorida joy olgan. Kunxo‘ja asarlarida qo‘llangan bunday so‘zlar o‘scha davrdagi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, tirikchiligi, har xil uy-xo‘jalik atamalari haqida qimmatli ma’lumotlar beruvchi leksik qatlam bo‘lib hisoblanadi. Ular qoraqalpoq xalqi turmushidagi ma’lum tarixiy davrida foydalangan buyumlarining nomlari sifatida bebaho bo‘lib, Kunxo‘ja asarlari tilning boyligini ko‘rsatib beradi. Shoir she’rlaridagi uy-ro‘zg‘or buyumlarini tadqiq qilish orqali qoraqalpoq tilining lug‘at boyligini teran o‘rganish va xalqimizning tarixi, etnografiyasini haqida atroflicha ma’lumotlar olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қарақалпақ тилиниң түснидирме сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1984. Т. II. Б.32.
2. Қарақалпақ тилиниң түснидирме сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1988. Т. III. Б.102.
3. Қарақалпақ тилиниң түснидирме сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1988. Т. III. Б.126.
4. Қарақалпақ тилиниң түснидирме сөзлиги. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1992. Т. IV. Б.558.
5. “Ана тили” газетасы. 1994, N-14, 7- апрель.
6. Древнетюркский словарь. Ленинград, 1969, с.451-461.
7. Б.Исмаилов. Күнхожаның өмири ҳәм творчествосы. Нөкис. «Қарақалпақстан» баспасы. 1961.